

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZOLIKNI JADALLASHTIRISH BO’YICHA TIZIMLI ISLOHOTLAR AMALGA OSHIRILMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni va uni jadallashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlat rahbarining alohida nazorati asosida 2023-yildan boshlab JSTga a’zo bo‘lish choralari ko‘rilmoqda. O‘tgan davrda ko‘p va ikki tomonlama muzokaralarda muayyan natijalarga erishildi.

Jumladan, Ishchi guruhining to‘rtta muhim yig‘ilishi o‘tkazilib, 500 dan ortiq masalalar ko‘tarildi, 30 dan ziyod rasmiy hujjatlar JST Kotibiyatiga taqdim etildi. A’zolikni jadallashtirish maqsadida sohalarida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, 33 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralar olib borilib, bugungi kunga qadar 24 tasi bilan muzokaralar yakunlandi.

JST a’zolari bilan muloqotda yangi yondashuv va islohotlar natijalari ijobiy baholanmoqda. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayonida ochiqlik, shaffoflik va adolatlilik savdoga bo‘lgan qat’iy intilishini tasdiqlaydi.

Shu ma’noda, milliy qonunchilikni tashkilot talablariga uyg‘unlashtirish doirasida keng ko‘lamli huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 13 ta qonun, Prezidentning 10 ta farmon va qarori, 19 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari va 10 ta idoralararo normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Jumladan, bojxona tartibotlari, eksport-import qoidalari hamda intellektual mulk sohasidagi mexanizmlar bosqichma-bosqich JST standartlariga moslashtirildi, davlat

ulushi mavjud bo‘lgan 6 ta korxonada ekskluziv huquqlar bekor qilindi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan JSTga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirish hamda uni sifatli va tizimli tashkil etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Unga ko‘ra, joriy yilda qolgan 9 ta mamlakat bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash, Ishchi guruhining 2 ta yig‘ilishini o‘tkazish hamda Ishchi guruhning hisobot loyihasini yakunlash orqali O‘zbekistonning JST doirasidagi majburiyatlarini to‘liq shakllantirish vazifalari aniq belgilab berildi.

Shuningdek, qonunchilikni tashkilot talablariga moslashtirish doirasida 15 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilish jarayonini jadallashtirish zarurligi ta’kidlandi. Jumladan, “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”, “Muhofoza choralarini, antidemping va kompensatsiya bojlari to‘g‘risida” yangi tahrirdagi qonunlarni qabul qilishni tezlashtirish hamda bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan yaqindan va samarali hamkorlikni ta’minlash Prezident tomonidan muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya sohalarini isloh qilish, ushbu yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish kerakligi alohida qayd etib o‘tildi.

O‘ZA

RENOVATSIYA LOYIHALARI POYTEXT ARXITEKTURASI VA INFRATUZILMASIGA MOS BO‘LISHI ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida rejalashtirilgan renovatsiya va investitsiya loyihalarini taqdimoti bilan tanishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-dekabrda qarori bilan Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan bosh rejasini tasdiqlangan edi. Bosh rejaga ko‘ra, poytaxtimiz hududi 3 ta — konservatsiya, rekonstruksiya va renovatsiya zonalariga ajratilgan.

Jumladan, renovatsiya zonasiga eski, kam qavatli uylar, shaharsozlik va zilzilabardoshlik talablariga javob bermaydigan binolar kiritilgan. Ular bosqichma-bosqich bartaraf etilib, bo‘shatilgan hudud zamonaviy loyihalar asosida qaytadan qurilishi ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda bu boradagi rejalarni haqida axborot berildi.

Qayd etilganidek, Bosh rejada 300 dan ortiq renovatsiya manzili belgilangan. 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan birinchi bosqichda 65 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu orqali mazkur hududlar funksional jihatdan boyitiladi, aholi uchun sharoitlar yaxshilanadi, atrof obodonlashtiriladi. Natijada eski va zamonaviy mavzalar orasidagi tafovut bosqichma-bosqich qisqartirib boriladi hamda ular o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Binolar kam maydonda qurilib, mavjud daraxtlar saqlab qolinadi, yangi yashil hududlar barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari bu loyihalarning shahar arxitekturasini va infratuzilmasiga mosligini chuqur o‘rganish, geologik va seysmik tahlillar asosida xavfsizlik jihatidan takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Turar joylar maktab-bog‘cha kabi ijtimoiy muassasalar, dam olish sharoitlari bilan hamohang bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

O‘ZA

15-may — Xalqaro oila kuni OILA – FAROVON JAMIYATNING ILK BO‘G‘INI

Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat bu — uning oilasidir. Sog‘lom va mustahkam oila — davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi olijanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



Oila — jonajon O‘zbekistonimizda va butun dunyoda inson hayotining mehvari, yashash saodatining shukhi va umr mazmuni bo‘lgan noyob qadriyat. Sharqona qarashlarimizda ham bu qadriyat ulug‘lanishi, asrlar davomida asralib, zavolga yuz tutmay kelishining boisi ham oilaning xalqimiz uchun hamisha avloddan avlodga o‘tuvchi ma’naviy meros, aslida, o‘ziga xos maktab, ma’naviy xazina bo‘lib qolganida.

Oila va uning ma’naviy ustuni bo‘lgan xotin-qizlar bilan ishlash borasida birgina 2025-yilning o‘zida sohaga doir 6 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan

tinch bo‘ladi”. Darhaqiqat, oila qadriyati har qanday xalq, davlatning asosiy kuchi va ijtimoiy-ma’rifiy qudrati timsoli. Oilalar mustahkam va totuv bo‘lgan yurt taraqqiy etadi, farovon bo‘ladi, odamiylik, umuminsoniy fazilatlar va yuksak qadriyatlar gullab-yashnaydi.

Davomi 3-betda

Tahlil

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA BOZORI GLOBAL ISHLAB CHIQUVCHILARNI JALB QILMOQDA

YIRIK XALQARO TADBIR BU BORADAGI ISHLARNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARADI

Keyingi bir necha oyda yurtimizda an’anzaviy o‘tkazilayotgan yirik xalqaro ko‘rgazmalardan biri — O‘zbekiston energetika haftaligiga jiddiy tayyorgarlik ko‘rildi. Odatdagidek biznes va mintaqaviy muloqot maydoniga aylanadigan xalqaro tadbirda ishtirok etish uchun turli mamlakatlardan ko‘plab kompaniya vakillari, mashhur brendlar, yonilg‘i-energetika sohasining yetakchi gigantlari katta qiziqish bildirgan. Bugun O‘zbekiston energetika sohasidagi ulkan islohotlari bilan jahon hamjamiyati e’tiborini tortmoqda.

Poytaxtimizdagi CAEx xalqaro ko‘rgazmalar maydonida 13-15-may kunlari o‘tkazilayotgan O‘zbekiston energetika haftaligi buning yana bir isboti. Unda sayyoramizning bugungi va ertangi kuni uchun yaratilayotgan xavfsiz energetikaning eng yangi texnologiyalari, zamonaviy yondashuv va innovatsiyalari, ilg‘or yechimlar namoyish etilmoqda. Avstriya, AQSH, Afg‘oniston,


BAA, Belarus, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gruziya, Daniya, Italiya, Fransiya, Xitoy, Tojikiston, Turkmaniston singari 30 ziyod davlat vakillari haftalik tadbirlarida qatnashyapti. Ko‘rgazma maydonida 465 ta kompaniya va brend, 120 dan ortiq spiker, 1420 delegat jam bo‘ldi.

Davomi 4-betda

Bunyodkorlik

SHAHARSOZLIKNING ZAMONAVIY QIYOFASI

BOBUR VA AL-XORAZMIYDA YANGI O‘ZBEKISTON SHUKUHI NAMOYON



Yaqin-yaqingacha bizda, ayniqsa, poytaxtda o‘z uyiga ega bo‘lish ushalmas orzu edi. Uy sotib olish katta voqeelik sanalardi. Kam ta’minlangan oilalarni qo‘ya turaylik, doimiy daromadga ega davlat ishchilarining ham kichik vatanga ega bo‘lishi katta mashaqqat bo‘lardi. Muammoning urchishiga, birinchi navbatda, poytaxt, viloyat va tuman markazlarida yangi turar joylar kam qurilishi, mavjudlari o‘ta qimmat ekani sabab edi. Hayotiy birlamchi ehtiyoj — uy-joyga ega bo‘lmasslik esa odamlarning turmushiga, kayfiyatiga ta’sir qilmasdan qolmasdi.



Xalqimiz tashvishini artirish, hayotdan razzi bo‘lib yashashini ta’minlashni o‘zining birlamchi maqsadi deb bilgan davlatimiz rahbari Prezidentining ilk oylaridayoq bu muammoni bartaraf etishga kirishdi. Tom ma’noda yo‘qolib borayotgan shaharsozlik tubdan isloh qilinib, hashamatli binolar emas, odamlar uchun zamonaviy, qulay, shinam ko‘p qavatli uylar bunyod etishga topshiriq berildi. Arzonlashtirilgan uy-joylarni kam ta’minlangan fuqarolar xarid qila olishi uchun imtiyozli ipoteka kreditlari, subsidiya ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Davomi 2-betda

MABLAG‘ YETARLI, LEKIN SIFATGA E’TIROZ BOR

Salomatlik — inson uchun eng ulug‘ ne’mat. Yurt tinchligi, jamiyat taraqqiyoti va oila baxti — barchasining asosida, avvalo, sog‘lom inson turadi. Shu bois, mamlakatimizda aholini tibbiyotdan rozi qilish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirish va aholiga yaqinlashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat tomonidan tibbiyot tizimini isloh qilish, aholini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olishga qaratilayotgan shuncha e’tibor va imkoniyatlarga qaramay, tizimda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar talaygina. Bu masalalar joriy yil 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste’molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish borasida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham qayd etildi.

Davomi 2-betda



OILAVIY TADBIRKORLIK, “KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI” TAMOIYILI ASOSIDAGI ISLOHOTLAR NATIJASIDA XOTIN-QIZLARNING BANDLIGI VA TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA YIRIK AMALIY ISHLAR QILINMOQDA. JUMLADAN, OILAVIY TADBIRKORLIK DASTURI ASOSIDA 200 MINGGA YAQIN XOTIN-QIZGA 3,3 TRILLION SO‘MDAN ORTIQ KREDIT AJRATILGAN.



15-may — Xalqaro oila kuni



Shuningdek, milliy liboslar namoyishi orqali o‘zbekona kiyinish madaniyati, qadimiy an‘analari va zamonaviy uslubdagi milliy kiyimlar targ‘ib etiladi. Qizlar uchun atlas va adrasdan tayyorlangan liboslar, yigitlar uchun esa do‘ppi, qiyiq, belbog‘ va to‘n kabi milliy kiyimlar namoyish etiladi.

“Sog‘lom oila uchun birlashaylik!” shiori ostida tashkil etiladigan sport marafoni va “5000 qadam” sog‘lomlashtirish tadbirlari oilalar va xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, jismoniy faollikni oshirishga undaydi.

OILA – FAROVON JAMIYATNING ILK BO‘G‘INI



Zulayho MAHKAMOVA, Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

O‘zbek oilalari o‘ziga xos milliy mezon va bebaho insoniy meroslar mujassam qadriyat maskanidir. Shu bois, oilani asrash butun millatni, uning jami ma‘rifiy qirralari, mezonlarini asrash deganidir.

Shu ma‘noda, joylarda har bir oilaga yetib borish va manzilli ishlash maqsadida respublikadan mahallaga qadar vertikal tizim joriy qilindi. Oilalar farovonligini ta‘minlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va boshqa barcha jabhada islohotlar bugun amaliy natijalarini bermoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish borasida ham oilaviy, milliy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha konseptual vazifalar belgilab berildi. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida “Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta‘lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o‘rgatuvchi maktab bu — oiladir”, deb oilaga ijtimoiy maqom berildi.

Ana shu yuksak qadriyatni, kichik vatanimizni yanada ulug‘lash, asrab-avaylash hamda yuksaltirish mamlakatimizdagi islohotlarning tub mohiyatini tashkil etmoqda. Bugun mamlakatimizda 10 million 300 mingdan ortiq oila mavjud. Shundan 5 milliondan ko‘prog‘i yosh oilalardir. Mana shularning har biriga davlat e‘tiborida ekanini his ettirish, ayniqsa, oilalar bag‘rida yashayotgan ayollar, farzandlarimizga alohida mehri va e‘tibor ko‘rsatish barcha davlat va nodavlat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining eng asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida ulkan

o‘zgarishlar davri kechmoqda. Yangi ma‘naviy makon yaratish, yangi O‘zbekistonning axloqiy qiyofasi rivojida oila va nikoh munosabatlarining o‘rni har qachongidan muhim. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Demak, tarbiya oiladan boshlanadi. So‘zsiz, birinchi tarbiyachi ota-onadir.

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta‘minlash, har tomonlama himoya qilish masalasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 76-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Bu boradagi ishlarni qisqa sarhisob qilsak, oilani ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy dasturlar joriy etilgani, birgina 2024-yilda “Ayollar daftari” tizimi orqali salkam 1 million ehtiyojmand ayolga yordam berilganini qayd etish lozim.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” tamoyili asosidagi islohotlar natijasida xotin-qizlarning bandligi va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yirik amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik dasturi asosida 200 mingga yaqin xotin-qizga 3,3 trillion so‘mdan ortiq kredit ajratilgan.

Oilaga g‘amxo‘rlik qilish siyosati natijasida 2021-yildan boshlab uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 2790 onaning arzon uy-joy uchun sotib olishi uchun 49,7 milliard so‘mlik boshlang‘ich badal puli to‘lab berildi.

Bitta qizni o‘qitsak, butun oilaga ta‘lim bergan bo‘lamiz. Agar oila bilimli, ma‘rifatli bo‘lsa, jamiyatning ongi, madaniy darajasi ham yuksaladi.

Yurtimizdagi 200 dan ziyod OTM talabalarining 52 foizdan ortig‘i (783 mingi) xotin-qizlardir. O‘tgan yilning o‘zida magistraturada o‘qiyotgan 15 mingga yaqin xotin-qizning 100 milliard so‘mga yaqin kontrakt puli to‘lab berildi.

Xotin-qizlarning ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirish, bu borada ehtiyojmand oilalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2020-2024-yillarda ehtiyojmand oilalardan bo‘lgan 10 mingga yaqin xotin-qiz oliy ta‘lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindi. 2022-2024-yillarda 397 mingga 7 yil muddatga foizsiz 4,3 trillion so‘m ta‘lim krediti ajratildi. Bu kabi yirik raqamlar nima dan dalolat? Albatta, davlat tomonidan oilani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ulkan islohotlarning amaliy natijasidir. Ayni paytda e‘tirof etilayotgan 2000 ta “Ibratli oila” ushbu mexanizmlar mahsulidir.

Qonunchiligimizda oila huquqi himoyasiga mediativ yondashuv instituti kirib keldi.



Oilaviy sudyalari tizimi joriy etildi. Oilaviy munosabatlar, oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka qarshi qonun hujjatlari takomillashtirildi. Ushbu yo‘nalishlarga xizmat qiluvchi 150 dan ortiq oila va xotin-qizlar maskani tashkil qilindi.

Har yili 15-may Xalqaro oila kuni sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan mamlakatimizda ham oilaviy qadriyatlarini asrab-avaylash, sog‘lom jamiyat poydevorini

mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. Joriy yil 10-maydan 10-iyuniga qadar “Farovon oila sari” oyligi o‘tkazilmoqda.

Oylik doirasida oila institutini mustahkamlash, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish hamda milliy an‘ana va urf-odatlarimizni ilgari surishga qaratilgan

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida ulkan o‘zgarishlar davri kechmoqda. Yangi ma‘naviy makon yaratish, yangi O‘zbekistonning axloqiy qiyofasi rivojida oila va nikoh munosabatlarining o‘rni har qachongidan muhim. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Demak, tarbiya oiladan boshlanadi. So‘zsiz, birinchi tarbiyachi ota-onadir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



qator tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, “Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon oila va barqaror kelajak” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish rejalashtirilgan. Mazkur konferensiya mutaxassislar, olimlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida o‘zaro tajriba almashish, ilmiy xulosalar asosida samarali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institutida bo‘lib o‘tadigan “Oila — ma‘naviyat va insonparvarlik maskani” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyada oilaviy tarbiyaning ahamiyati, ma‘naviy qadriyatlarimizga sadoqat va insonparvarlik g‘oyalari amalga namoyon etish masalalari muhokama qilinadi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar oilalari o‘rtasida “Yangi O‘zbekistonning harbiylar oilasi” tanlovi tashkil etilib, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi yo‘lida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan insonlarning oilaviy muhitidagi ibratli jihatlarni keng targ‘ib etish ko‘zda tutilgan.

Sana munosabati bilan yurtimizning barcha tuman va shahar markazlaridagi istirohat bog‘larida “Oilalar sayli” (OILAFEST) o‘tkaziladi. Unda “Ibratli oila” ko‘krak nishoni sohiblari, kelin-kuyovlar, namunali oilalar ishtirok etadi. Bu kabi tadbirlar oila institutiga ijtimoiy e‘tiborni mustahkamlashga xizmat qiladi.

axborot asrida yurtimizdagi har bir fuqaroning ilgama ehtiyoji, intilishi, imkoniyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas.

Navoiyning “Xamsa”sidagi har bir dostonida insonparvarlik, vafodorlik, rostgo‘ylik kabi xislatlar targ‘ib etiladi. Ularda ota-ona va bola munosabatlari, turmush qirishdagi odob va mas‘uliyat haqida ham tegishli xulosalar bor.

Milliy merosimiz ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy boyliklar, asarlar va ta‘limotlar orqali shakllanadi. Xalqimizning yuksak ma‘naviy salohiyati va axloqiy qadriyatlari ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ular oila tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Yuksak madaniyat, odob-axloq, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni bolalar ongiga yoshlarning singdirishida bebaho asarlarning o‘rni beqiyos.

Ajdodlarimiz ma‘naviy merosi oilada ma‘naviyatni mustahkamlash vositasidir. Ularni mutolaa qilish orqali ota-onalar farzandlariga ma‘naviy tarbiya berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday asarlar yoshlar ongida vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga mehri kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

Bugungi globallashuv sharoitida, yoshlarning dunyoqarashi kengayayotgan bir paytda milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlarimiz asarlaridagi tarbiyaviy g‘oyalar zamonaviy usullar bilan uyg‘unlashtirilsa, yanada ta‘sirli va samarali bo‘ladi.

Qisqasi, ajdodlarimiz ma‘naviy merosi nafaqat tarixiy manba, balki hayot maktabi, oilaviy tarbiya dasturidir. Ularni targ‘ib qilish, farzandlarimiz ongiga singdirish har bir oila va jamiyatning muqaddas burchidir.

Abira HUSEYNOVA, falsafa fanlari doktori, professor

Oila — inson hayotidagi asosiy tarbiya maskani. U har bir shaxsning axloqiy va ma‘naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Milliy madaniy merosimizda oilaviy tarbiyaga alohida ahamiyat berilgan. Bu meros qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analari va xalq pedagogikasini o‘z ichiga olib, oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Imom Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yungakiy, Jaloliddin Rumiy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk allomalimiz asarlari nafaqat ilmiy va adabiy jihatdan, balki axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan ham juda katta ahamiyatga ega.

O‘rta asrlarning mashhur faylasufi va pedagogi Abu Nasr Forobiyning oilaviy tarbiya haqidagi fikrlarida oila, tarbiya va shaxsning axloqiy rivojiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mutafakkir “Baxtiga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Fozil odamlar shahri”



kabi asarlarida insonni yoshligidan aqliy va jismoniy tarbiyalab, sabot-matonatli, ajdodlar an‘anasiga sodiq, axloqan pok, ezgu niyatli, barkamol etib tarbiyalash lozimligini ta‘kidlaydi.

Allomaning “Inson o‘z baxtiga erishishda go‘zallikni ko‘rishi va his qilishining o‘zi yetarli emas. Buning uchun go‘zallikni yaratish olishi muhimdir”, degan fikrida chuqur ma‘no mujassam. Bu fikrda bugungi ota-onalar oilada, ish joyida, ro‘zg‘orda, uy tutimida, o‘zaro munosabatda, yurish-turishda, kiyinishda, farzandlar bilan muomalada namuna bo‘la olishi zarur degan g‘oya mujassam. Ulug‘ ajdodlarimiz o‘zi namuna bo‘lib, farzandlariga pand-u nasihat qilgan. Hikmatlarini kelajak avlodga ma‘naviy meros sifatida yozib qoldirgan.

Forobiyning “Har inson kasb-korini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya

olmog‘i, yaxshi xulq-atvor va fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak”, degan fikri hozirgi ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlarga hamohangdek.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o‘zi lug‘ mukofotidir”, deydi. Tarbiyada yaxshilik — axloqiy tamoyillarning eng asosiysi. Albatta, yaxshilik bor joyda yomonlik ham mavjud. Inson hayoti davomida kimdadir yaxshilik va yomonlik qilsa, kimdandir yaxshilik va yomonlik ko‘radi. Bu hayot qonuniyati bo‘lib, inson hayotining asosi yaxshilikdan iborat bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda ulug‘ bobomizning “Har qanday kelishmovchilik va nizolarni aql bilan, umummanfaatni hisobga olgan holda hal qilish zarur”, degan fikrini eslash joiz.

Navoiy oiladagi tarbiyani yoshlarning axloqiy-ma‘naviy rivojlanishida muhim omil deb e‘tirof etadi. Ta‘kidlashicha, oilada axloqiy me‘yorlar va prinsiplar asosida farzandlarga tarbiya berish ularni kamolga yetkazishning asosidir. Shoirning “Farhod va Shirin” dostonida oilada muhabbat, hurmat va ishonchning o‘rni xususida juda ko‘p fikrlar



mavjud. Ularga ko‘ra, oilaning har bir a‘zosi o‘zaro ehtirom va muhabbat bilan yashashi kerak.

“Milliy merosimiz ajdodlarimiz qoldirgan ma‘naviy boyliklar, asarlar va ta‘limotlar orqali shakllanadi. Xalqimizning yuksak ma‘naviy salohiyati va axloqiy qadriyatlari ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ular oila tarbiyasida muhim manba sifatida xizmat qiladi.



O'ZBEKISTON ENERGETIKA BOZORI GLOBAL ISHLAB CHIQUARUVCHILARNI JALB QILMOQDA



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Haftalik tadbirlari yonilg'i-energetika sohasining ikki asosiy qismi — uglevodorod qazib olish va elektr energetikasi yo'nalishlarini birlashtirdi. CAEX xalqaro ko'rgazmalar markazida bir vaqtning o'zida “O'zbekiston neft va gaz — OGU-2025” 27-xalqaro ko'rgazmasi va anjumani hamda “Energetika, energiya tejash, atom energetikasi, muqobil energiya manbalari — Power Uzbekistan-2025” 18-xalqaro ko'rgazmasi o'tkazilayapti. Qolaversa, haftalik dasturidan “Yashil” energiya tejovchi texnologiyalar — GETCA-2025 ixtisoslashtirilgan bo'limi, 5-xalqaro energetika anjumani va boshqa yirik formatdagi tadbirlar joy olgan.

Biznes uchrashuvlar, B2B va B2G shaklidagi muloqotlar uchun ham qulay maydon yaratilgan. Haftalik nazariya va amaliyot, innovatsiya va tajriba, sanoat va biznes vakillari o'rtasidagi umumiy muloqotni ta'minlayotganini ko'rish mumkin.

CAEX xalqaro ko'rgazmalar markazida har bir mamlakat pavilyoni alohida ajratilgan. Ularni bayroq yoki boshqa ramziy belgilari orqali darrov tanib olsa bo'ladi. Stendlar joylashgan maydonchalarning har biri taqdim etilayotgan mahsulot va kompaniya haqidagi ma'lumotlar, ko'rgazma uchun namunalar, suhbat uchun alohida burchak bilan jihozlangan. Masalan, biror mahsulot notanish ko'rinsa, u haqidagi ma'lumotni bir necha tilda o'qib, ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Ishtirokchilar bilan til topishish ham unchalik qiyin emas, barchasining oldida tarjimon bor.

An'anaviy usulga yangicha yondashuvlar

Hayotimizni elektr energiyasiz tasavvur qilish mushkul. Uyimizni yoritish alohida masala, ammo bugunga kelib biz foydalanadigan deyarli barcha texnik qurilmaning elektr energiyasi bilan ishlashi elektr energiyasiga ehtiyojimizni ta'laqonli aks ettiradi. Xonadonimizdagi barcha maishiy texnika, ishxonadagi kompyuter va boshqa uskunalar, bank, savdo yoki boshqa xizmat ko'rsatish markazlaridagi to'lov tizimi va apparatlari, xullas, duch keladiganimiz jamiki mexanik qurilmalar elektrlashtirib bo'lingan. Hatto suv jo'mraklari ham elektr toki yordamida ishlamayapti. Uydagi chiroq o'chsa, suv ham o'chadi.

Energetika sohasi haqida gap borganida, avvalo, ko'z oldimizga yonilg'i manbalari — neft, tabiiy gaz va boshqalar keladi. Chunki insoniyat uzoq yillar shu manbalardan foydalanib, elektr energiyasi ishlab chiqargan. To'g'ri, ulardan chiqadigan zararli gaz atmosfera uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Ammo mamlakatlar faol intilayotgan “yashil iqtisodiyot”ga o'tish harakati to'liq amalga oshmas ekan, an'anaviy usulda elektr energiyasi ishlab chiqarishdan voz kechish haqida gapirish mushkul. Faqatgina ularning zararli ta'sirini kamaytirish uchun yangi yechimlar izlab topish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni olib kirish lozim. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari rivojida zararli omillarni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or uskunalarini joriy etish orqali atmosferani ifloslantiruvchi chiqindilar chiqishining oldini olish dolzarb masalaga aylangan.

O'zbekiston energetika haftaligi doirasida o'tayotgan “O'zbekiston neft va gaz — OGU” xalqaro ko'rgazmasida ana shunday texnologiyalar namoyish etilmoqda. — Ekologik me'yorlarga javob berish talabi xalqaro standartlarning asosiy qismiga aylangani bejiz

emas. Ishlab chiqarish korxonalari bu talabni bajarmay turib, bozordan o'rin egallay olmaydi, — deydi Turkiyaning “Mimsan energy” kompaniyasi bosh direktori Tarik Yilmaz. —

Kompaniyamiz, asosan, suv isitish va bug' qozonlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Zavod Anqarada joylashgan, 42 yildan beri faoliyat yuritmoqda. Biz ishlab chiqaradigan mahsulotlar turar joy majmualari, ko'p qavatli uylarga o'rnatiladi. Bug' qozonlaridan esa ko'proq oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqaruvchi zavodlarda foydalanilmoqda. Ushbu uskunalar gaz va dizel yordamida ishlaydi. Ulardan chiqadigan zararli gazni kamaytirish uchun maxsus filtrlar o'rnatilgan. Hatto ko'mirda ishlaydigan bug' qozonlarining mo'risidan ham tutun chiqmaydi. Mana shu jihatlar bilan bozorda ustunlikka erishib kelyapmiz. O'zbekistonda ham xaridorimiz ko'p. Bu bozorga kirib kelganimizga 7-8 yil bo'ldi. Shu kungacha rasmiy dilerimiz orqali Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Farg'ona, Toshkent viloyatlaridagi ko'p qavatli uylarga uskunalarimiz o'rnatildi.

“Yashil” kelajak sari

Ko'rgazma maydonidagi har bir mahsulot oldiga borganida, uning muqobil energiya manbalari yordamida ishlash imkoniyati haqida surishtirdik. Chunki elektr energiyasidan foydalanishning mazkur tejamkor, arzon, xavfsiz, ekologik toza usuli allaqachon hayotimizga kirib kelib, ommalashtirmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmog'ida muqobil energetikani joriy etish ko'lami kengayib boryapti. Shunga erisha mahsulotlar, yangi texnologiyalar taklif etilyapti.

Hozir O'zbekiston “yashil iqtisodiyot”ga o'tishning shiddatli yo'lidagi bormoqda. Dunyo hamjamiyati mamlakatimizning bu boradagi imkoniyatlarini va sa'y-harakati haqida gapiryapti, yirik loyihalarni katta qiziqish bilan kuzatyapti. Kuzatibgina qolmay, hamkorlikka, investitsiya kiritishga intilmoqda. Jahonning yetakchi kompaniyalari, dunyoga mashhur energetika gigantlari mamlakatimizni ishonchli hamkor sifatida tanlayapti.

Bu bozorda ham raqobat ancha kuchaygan.

O'zbekiston energetika haftaligi doirasida asosiy e'tibor ham, muvohama va muloqotlar markazidagi masala ham, hatto ko'rgazma maydonidagi ko'p texnologiyalar “yashil” energiya bilan bog'liq ekan bo'shda qisqarib tabiiy energetika manbalari tomona qisqarib borayotgani muqobil energiya manbalari haqida oshirayotgan davlat sifatida tilga olinmoqda. Bu yo'ldagi sa'y-harakatlar 2019-yildan



“yashil” energetika keskin rivojlanishi va yangi texnologiyalar yaratilishiga sabab bo'lmoqda. “Yashil” energiyani faol joriy etayotgan yetakchi davlatlar paydo bo'la boshladi. Ularning tajribasi boshqa mamlakatlarda ham targ'ib etilyapti. Gigant kompaniyalar davlatlarning “yashil iqtisodiyot”ga o'tishdagi sa'y-harakatini har tomonlama qo'llab-quvvatlamogda. Ya'ni dunyo

boshlandi. O'sha vaqtda mazkur sohadagi ishlar borasida tasavvur ham yo'q edi. Quyosh yoki shamoldan elektr energiyasi olish u yuqoridagi xabar berishicha, joriy yil 12-may holatiga ko'ra, yurtimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 2025-yil boshidan buyon ishlab chiqarilgan elektr energiyasi miqdori 3 milliard kilovatt-soatni tashkil qildi. Buning natijasida 900 million kub metr tabiiy gaz tejashiga erishilib, atmosfera 1 million



hamjamiyati sayyoramizning “yashil” kelajagi uchun birlashyapti va bunda aynan muqobil energiya manbalari o'tish asosiy maqsadga aylangan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib mazkur harakatga qo'shilgan va qisqa muddatda “yashil” taraqqiyot tomon yuz burib, megaloyihalarni amalga oshirayotgan davlat sifatida tilga olinmoqda. Bu yo'ldagi sa'y-harakatlar 2019-yildan

tarmoq paydo bo'ldi. 2019-yil 4-oktyabrda Prezidentimizning “2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unda yaqin o'n yilda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmog'ida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalari keng foydalanish ko'zda tutilgan.

Bu ko'pchilikning nazdida faqat qog'ozda qoladigan ishlardek ko'riningan ham rost. Ammo yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirish faol harakatga aylandi. Asosiy e'tibor ilg'or davlatlar tajribasi va xorijiy investitsiyalarga qaratildi. Tez orada umumiy quvvati 20 ming 630 megavattga teng bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda 40 ta bitim imzolandi.

Ko'lami yildan yilga oshib boryapti. Masalan, 2023-yil dekabrda mamlakatimizda 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan bo'lsa, 2024-yil dekabrda qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilib, 6 ta loyiha qurilishiga start berildi. Yurtimizda 3,5 ming megavatt quvvatdagi 16 ta yirik “yashil” loyiha tarmoqqa elektr uzatishi hisobiga 2024-yilda “yashil” energiya ulushi 16 foizdan oshdi. Ya'ni ekologik toza energiya quvvati yiliga 2-3 karra ko'paytirilyapti.

Bunday shiddatli sharoitda 2026-yilga

borib, O'zbekistonda umumiy quvvati 5000 megavatt, 2030-yilga borib esa 18 ming megavatt dan ortiq bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari ish boshlashi reja qilingan. Mazkur “yashil” loyihalar ishga tushirilgach, 2030-yilga qadar yiliga 50 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keladi. Bu ushbu davrga borib mamlakatimizda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 54 foizi qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga to'g'ri keladi, degani. Loyihalar, avvalo, hududlarda energetika barqarorligini ta'minlash, olis manzillargacha uzluksiz elektr toki yetib borishi, sanoat rivojlanib, yangi quvvatlar, korxonalar ishga tushishiga xizmat qiladi. Qolaversa, har bir loyiha ortidan yuzlab, minglab inson ish bilan ta'minlanadi.

Bugun mamlakatimizning 10 ta viloyatida umumiy quvvati 4067 megavatt bo'lgan 11 ta quyosh fotoelektr stansiyasi hamda 3 ta shamol elektr stansiyasi “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda. Energetika vazirligining xabar berishicha, joriy yil 12-may holatiga ko'ra, yurtimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 2025-yil boshidan buyon ishlab chiqarilgan elektr energiyasi miqdori 3 milliard kilovatt-soatni tashkil qildi. Buning natijasida 900 million kub metr tabiiy gaz tejashiga erishilib, atmosfera 1 million

tizimi mavjud bo'lib, bu tarmoq barqarorligini ta'minlaydi. Hozir mamlakatda qiymati 4 milliard dollardan ortiq elektr energiyasini yetkazib berish bitimi moliyalashtirilgan yoki imzolangan. O'zbekiston energetika bozori endi dunyo darajasidagi ishlab chiqaruvchilarni jalb etmoqda.

Jahondagi yirik moliyaviy tuzilmani boshqarayotgan Masato Kandaning mulohazalari shunchaki diplomatik lutf emas. Bu, eng avvalo, O'zbekiston Prezidentining energetika tizimini qayta qurishga qaratilgan sa'y-harakatlariga berilgan yuksak baho. Qolaversa, tarmoqdagi tarixiy islohotlarning global darajada tan olinishi, yurtimizning “yashil iqtisodiyot” sari qo'ygan qadamlarining amaldagi haqqoniy natijasidir. Zero, bugun O'zbekiston mintaqada “yashil” energetika xabiga aylannoqda.

Tajriba almashish maydoni

Energetika sohasidagi eng ilg'or texnologiya va innovatsiyalar namoyish etilayotgan haftalik doirasidagi “Energetika, energiya tejash, atom energetikasi, muqobil energiya manbalari — Power Uzbekistan-2025” 18-xalqaro ko'rgazmasi ushbu strategik ahamiyatga ega sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unda taqdim etilayotgan innovatsiya va eng so'nggi texnologik yechimlar muqobil energiya manbalari qo'llashning afzalliklarini yana bir karra ko'rsatadi. Bu borada har bir davlatning o'z taklifi, yangi texnologiyalari mavjud. Ular ko'rgazmada ana shularni taqdim etish barobarida ishonchli hamkorlar topish niyatida.

Masalan, turk kompaniyalari qatorasiga to'rtinchi yil milliy pavilyon formatida ishtirok etmoqda. Xitoy kompaniyalarining ishtiroki ham an'anaga aylangan. Stendlarni tomosha qilish asnosida ko'plab zamonaviy qurilmalar e'tiborni tortadi. Ularga qarab turib, “yashil” energetika texnologiyalari qanchalik shiddat bilan rivojlanayotganiga amin bo'lish kishi.

— Hozirgi quyosh panellari avvalgilardan farq qiladi va yil sayin takomillashyapti, — deydi Xitoyning “Yuan Chan Solar” kompaniyasi rahbari Stivan Jian. — Kompaniyamiz 2006-yildan buyon quyosh panelli va inventarlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Zavodda 4 ta liniya mavjud bo'lib, 2024-yildan boshlab yangi turdagi quyosh panellari ishlab chiqarilayapti. Ular eskilaridan ichki quvvati yuqoriligi bilan farq qiladi. Ko'plab davlatlarning muqobil energiya manbalari qo'llashni jadallashgan. Shu bois, 2023-yilda Toshkent shahrida “EvaEnergy” nomi bilan korxona tashkil qildik. Bu yerda Xitoydagi zavodimizdan olib kelingan quyosh panellari sotilyapti. Katta-katta loyihalar uchun qurilma keltirib, o'rnatib beramiz. Zavodimizda suv isitish uskunalarini ham ishlab chiqariladi. Ular to'liq quyosh panelli yordamida ishlaydi va suvni yozda 100, qishda 50-60 darajagacha isitib beradi.

Energetika mahsulotlari sanoatida mahalliy ishlab chiqarish hisssasi ham ancha oshgan. Hatto elektrotexnika sanoati yurtimiz iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylandi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari xorijniki bilan teng raqobatlashyapti. Milliy brendlarimizga jahon bozorida xaridor ko'p. Muqobil energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish ham boshlangan.

Energetika haftaligidagi mahalliy kompaniyalar ishtiroki yaqqol ko'zga tashlandi. Masalan, Toshkent shahridagi 18 yildan ortiq tajribaga ega “Nura Group” kompaniyasi podstansiya qurish va transformatorlar ishlab chiqarishda yetakchilardan. U Xitoy, Turkiya, Ukraina, Rossiya bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Yevropa davlatlari bilan savdo kelishuvlariga erishilyapti. Ko'rgazma davomida xorijliklar kompaniya mahsulotlariga qiziqish bildirdi. Boshqa kompaniyalar ham haftalik doirasidagi biznes uchrashuvlarda manfaatli kelishuvlarga erishmoqda. Hamkorlik aloqalari ikki tomonlama hujjatlarini imzolashda aks etyapti.

Xalqaro ko'rgazmadagi ko'zlangan maqsad faqat savdo aloqalarini o'rnatishdan iborat emas. Bugun zamonaviy energetika sohasi qanchalik rivojlanmasin, sohada ko'zga tashlanayotgan muammolar ham bor. Haftalikdan joy olgan O'zbekiston xalqaro energetika forumida ayni shu masalalar o'rta taqdimatda. Forumning uch kunlik kun tartibidan vazirlar va ekspertlar muloqoti, yalpi majlis, xalqaro ekspertlar ishtirokidagi panel va texnik sessiyalarda taklif etilayotgan ilg'or yechimlar amaliyotga ko'chishi shubhasiz.

“YIL O‘QITUVCHISI” VA “KASBIY MAHORAT YETAKCHISI” tanlovlarini o‘tkazish tartibi qanday?

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Kasbi o‘qituvchi bo‘lgan qarindoshimdan “Yil o‘qituvchisi” tanlovi o‘tkazilarkan, g‘oliblarga yarim milliard so‘mdan ko‘proq mukofot belgilanibdi, agar shunda yutsangiz, bemaolol yangi uy xarid qilsangiz bo‘ladi deb suyunchi oldim. Qarindoshim “Agar shu tanlovda yutsam, mukofotiga uy olmas edim. Bolalarimni eng nufuzli oliygohlarda o‘qitardim”, degan javob berdi. Ochig‘i, gapirgan gapimga xijolat tortib qoldim. Darhaqiqat, ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan fidoyi ustozlarning ma‘naviy najoti ham, orzu-maqsadlari ham ta‘limning o‘zi bilan bog‘liq bo‘ladi. Eng muhimi, ularga shunga mos sharoit yaratib berish. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasi xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlar zahirida ayni maqsad yotibdi, desak adashmaymiz.



Yaqinda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘lim sohasi xodimlari o‘rtasida “Yil o‘qituvchisi” hamda “Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori imzolandi.

Qarorga ko‘ra, “Yil o‘qituvchisi” hamda “Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovlarini 2026-yildan boshlab har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Xo‘sh, bu tanlovlarini tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima? Unda ishtirok etishning tartiblari qanday? Ularda kimlar qatnasha oladi? Ushbu maqolada shu kabi savollarga javob olamiz.

— Mamlakatimizda ta‘lim sohasini rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va jamiyatdagi nufuzini yuksaltirish maqsadida ko‘plab tanlovlar tashkil etilmoqda, — deydi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi boshqarma boshlig‘i Sardon Rahimboyev. — 2024-yil 30-sentabr kuni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining yangi binosi ochilishi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda davlatimiz rahbari tomonidan “Yil o‘qituvchisi” tanlovini tashkil etish bo‘yicha topshiriq berilgan edi. Mazkur topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi mazkur qarorning loyihasini ishlab chiqdi.

“Yil o‘qituvchisi” tanlovidan ko‘zlangan asosiy maqsad umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida faoliyat yuritayotgan fan o‘qituvchilari orasidan eng namunalilarini kashf etishdir. Bu tanlov orqali yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan, o‘quv-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishayotgan o‘qituvchilar aniqlanadi hamda ularning mehnati munosib rag‘batlantiriladi. Tanlov nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi, balki ularning jamiyatdagi obro‘sinini yanada yuksaltirishga yordam beradi.

“Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovi esa pedagogik mahorat markazlari direktorlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga mo‘ljallangan. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad markaz rahbarlarining ilmiy-pedagogik faoliyati natijadorligini oshirish, ta‘lim sifatini yuksaltirishga intilishni rag‘batlantirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari sifatini yaxshilash hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta‘minlashdir.

Muxtasar aytganda, bu tanlovlar orqali ta‘lim sohasidagi eng yaxshi tajribalar ommalashtirilib,

pedagoglar va rahbarlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish imkoniyati yaratiladi.

Bosqichlar va shartlar

“Yil o‘qituvchisi” tanlovi uch bosqichda o‘tkaziladi, har bir bosqich o‘ziga xos mezonlar va baholash jarayonlariga ega.

Tanlovning dastlabki bosqichi har yili oktyabr-dekabr oylarida tashkil etiladi. Bu bosqichda nomzodlarning mutaxassislik fani, pedagogik mahorati va kasb standartlari bo‘yicha nazariy bilimlari baholanadi.

“Baholash jarayoni Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida o‘tkaziladi. Ushbu bosqich FaceID va Blockchain texnologiyalari yordamida onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda — yanvar-fevral oylarida nomzodlarning pedagogik mahorati maxsus mezonlar asosida baholanadi. Bu jarayonda nomzodlar o‘tgan darslarning videoyozuvlari maxsus platformaga joylashtiriladi va hakamlar hay‘ati hamda pedagoglar tomonidan tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda o‘qituvchilarning dars o‘tish uslublari, o‘quvchilar bilan muloqot qilish qobiliyatlari va innovatsion yondashuvlari e‘tiborga olinadi.

Nihoyat, tanlovning yakuniy bosqichi aprel-may oylarida bo‘lib o‘tadi. Bunda nomzodlarning ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyati va kitobxonlik darajasi taqdimotlar asosida hakamlar hay‘ati tomonidan baholanadi. Nomzodlarning o‘quvchilarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berishdagi hisssasi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qo‘shgan ulushiga alohida e‘tibor qaratiladi.

“Yil o‘qituvchisi” tanlovida ishtirok etish uchun nomzodlar qanday talablarga javob berishi lozim? O‘zi kimlar qatnasha oladi?

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, talabgorlar oliy yoki birinchi malaka toifasiga ega bo‘lishi,

kamida besh yillik pedagogik tajribi, tanlov o‘tkaziladigan o‘quv yili boshidan ta‘lim muassasasida asosiy shtatda faoliyat yuritishi hamda fan o‘qituvchisi yoki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida ishlashi kerak. Bu shartlar tanlovda faqat eng malakali va tajribali o‘qituvchilar ishtirok etishini ta‘minlaydi.

Baholash mezonlari

“Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovi pedagogik mahorat markazlari direktorlari o‘rtasida o‘tkaziladi. Tanlovda markaz direktori lavozimida kamida ikki yil davomida faoliyat yuritayotgan rahbarlar ishtirok etishi mumkin. Tanlov jarayonida direktorlarning faoliyati to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholanadi.

Dastlabki yo‘nalishda markaz tomonidan hududda ta‘lim sifatini yuksaltirishga qaratilgan ishlar va erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Ikkinchisida markazning moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish va barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha erishilgan yutuqlar baholanadi. Uchinchi yo‘nalishda markazda innovatsion usulbar asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish darajasi ko‘rib chiqiladi. Oxirgi bosqichda esa markazni tajribali kadrlar bilan ta‘minlash, zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash samaradorligi tahlil qilinadi. Ayni yo‘nalishlar bo‘yicha direktorlarning faoliyati maxsus ishchi guruh tomonidan sinchkovlik bilan o‘rganiladi.

Shaffoflik va adolatni ta‘minlash mexanizmlari

Tanlovlarning shaffof va adolatli o‘tkazilishi uchun bir qator zamonaviy mexanizmlar qo‘llanilishi belgilangan. Yuqorida “Yil o‘qituvchisi” tanlovining birinchi bosqichi FaceID va Blockchain texnologiyalari yordamida onlayn tarzda o‘tkazilishini aytdik. Bu texnologiyalar sinov jarayonining shaffofligini ta‘minlaydi va har qanday nojo‘ya aralashuvlarning oldini oladi. Ikkinchi bosqichda darslarning videoyozuvlari maxsus platformaga joylashtiriladi, bu esa baholash jarayoni ochiqligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, har bir bosqichning ballari ochiq e‘lon qilinib, ishtirokchilar va jamoatchilik uchun shaffoflik kafolatlanadi.

“Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovi jarayonida esa ishchi guruh tomonidan

direktorlar faoliyati sinchkovlik bilan tahlil vositasida o‘rganiladi.

Darhaqiqat, tanlovlar adolatli va shaffof o‘tkazilishi uchun jamoatchilik vakillari ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu tanlovlar faxriy pedagoglar, ekspertlar va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda tashkil etilishi belgilangan. Jamoatchilik vakillari baholash jarayonlarida ishtirok etib, tanlovning ochiqligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, tanlovlar yetakchi ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib boriladi. Bunda ular Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi bilan hamkorlikda tanlovlarning mazmuni, jarayon haqida doimiy ravishda ma‘lumot berib boradi. Bu o‘z o‘rnida mazkur tanlovlarning jamiyatdagi ahamiyatini oshirishga va pedagoglarning obro‘sinini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Mukofot va imtiyozlar

Tanlov g‘oliblariga nafaqat bazaviy hisoblash miqdorining 1400 baravariga teng pul mukofotlari, balki boshqa imtiyozlar ham taqdim etilishi mumkin. Garchi tanlov nizomida alohida imtiyozlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa-da, g‘oliblar turli davlat va soha mukofotlari bilan taqdirlanishga tavsiya etilishi ehtimoli yuqori



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

boshladim. Zero, davlatimiz tomonidan ta‘lim sohasiga bu qadar e‘tibor berilayotgani, o‘qituvchilarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bizning yanada yaxshiroq mehnat qilishimizga motivatsiya berib, kelajakda katta-katta yutuqlarga erishishimizga zamin yaratadi.

Bu tanlovlar o‘tkazilishi yosh o‘qituvchilar orasida ham qizg‘in kutib olinayotgani quvonarli. Ana shunday yoshlardan biri piskentlik Dilnoza Qarshiboyeva.

— Bolaligidan adabiyotning sehrli olamiga sho‘ng‘ib, Alisher Navoiyning “Xamsa”sidan tortib, Zulfiyaning nozik lirikasi va Abdulla Oripovning vatanparvarlik ruhida she‘rlarigacha o‘qib chiqdim. Bu muhabbat meni o‘qituvchilik kasbiga yetakladi, — deydi D.Qarshiboyeva. — Chunki men o‘quvchilarimga nafaqat tilimz nozikliklarini, balki adabiyotimizning chuqur hayotiy mohiyatini ham singdirishni orzu qilardim. Har darsimda o‘quvchilarimning ko‘zlarida bilimga muhabbat alangasini ko‘rganimda bu yo‘lni tanlaganimdan faxrlanam.

“Yil o‘qituvchisi” tanlovi haqidagi xushxabar esa bu faxrni yanada oshirdi, o‘z kasbiy faoliyatimni yangi nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga undadi. Mazkur tanlov o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan eng muhim tashabbuslardan biri bo‘ldi, desam adashmayman. Bu nafaqat mehnatimizni e‘tirof etish, balki o‘qituvchilikning jamiyatdagi o‘mini yuksaltirish, ustozlar obro‘sinini yanada oshirish yo‘lidagi ulkan qadamdir. Tanlov o‘qituvchilarga o‘z salohiyatini kengroq doirada namoyish etish imkonini beradi, bu esa har birimizni o‘z ishimizga yanada ijodiy va mas‘uliyatli yondashishga chorlaydi.

Men uchun tanlov nafaqat e‘tirof va mukofot manbai, balki o‘z tajribamni boshqa hamkasblar bilan bo‘lishish, ularidan yangi g‘oya va uslublarni o‘rganish uchun noyob imkoniyat hamdir. O‘zbek tili va adabiyot fani o‘qituvchisi sifatida o‘quvchilarimga she‘r va nasr orqali hayotning go‘zalligini, vatan va insoniyatga muhabbatini his qilishni o‘rgataman. Agar tanlovda ishtirok etsam, o‘quvchilarimga ulkan ijodkorlarimiz asarlarini zamonaviy ta‘lim usullari orqali singdirish bo‘yicha shaxsiy tajribamni taqdim etar edim. Masalan, o‘quvchilarimga she‘r tahlilini interaktiv usullar yordamida o‘rgatish yoki hikoyalarga orqali ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish kabi yondashuvlarimni ko‘rsatardim. Tanlovning ahamiyati shundaki, u o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi hamda har birimizni doimiy ravishda o‘z ustimizda ishlashga undaydi.

O‘qituvchilik nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilar qalbid ma‘naviy boylik qoldirish, ularni hayotga tayyorlash demakdir. Men har darsimda o‘quvchilarimga nafaqat adabiyotni, balki o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosini, axloqiy qadriyatlarini singdirishga intilaman. Tanlov bu mas‘uliyatni yanada chuqurroq his qilishga va o‘z ishimga yangi ijodiy yondashuvlar kiritishga ilhom beradi. Masalan, yaqinda darslarimda adabiy asarlarni sahmalashtrish orqali o‘quvchilar faolligini oshirishni sinab ko‘rdim va bu ularning fanga qiziqishini sezilarli darajada oshirganini his qildim. Bunday tajribalar tanlov doirasida boshqa o‘qituvchilar bilan bo‘lishish, ularning usullarini o‘rganish men uchun katta imkoniyat bo‘ladi.

Mamlakatimizda ta‘limga e‘tibor, xususan, bunday tanlovlar orqali o‘qituvchilarni rag‘batlantirishga qaratilgan tashabbuslar har bir o‘qituvchining yuragida katta umid uyg‘otadi. Bu tashabbuslar bizni yanada fidoyi va ijodkorona kayfiyatda bo‘lishga, o‘quvchilarimizga eng yaxshi bilimlarni berishga undaydi.

“Yil o‘qituvchisi” va “Kasbiy mahorat yetakchisi” tanlovlarini mamlakatimiz ta‘lim tizimining rivojlanishida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tanlovlar orqali nafaqat eng yaxshi pedagoglar va rahbarlar aniqlanadi, balki ta‘lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar va tajribalar ommalashtiriladi. Shuningdek, pedagoglar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirib, kasbiy mahoratni oshirishga va ta‘lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu tanlovlar yanada kengroq miqyosda tashkil etilishi va ta‘lim sohasidagi boshqa yo‘nalishlarni ham qamrab olishi ayni muddao. Bu mamlakatimiz ta‘lim tizimini xalqaro darajada raqobatbardosh qilishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.



Joriy yil 1-2-may kunlari Prezidentimizning Xorazmga tashrifi har tomonlama samarali bo‘ldi. Bu galgi tashrifda ilgari surilgan tashabbuslar odamlar hayotini yaxshilash, viloyatni dunyodagi eng go‘zal va obod, ilm-fan va innovatsiyalar, madaniyat va san‘at yanada rivojlangan hududga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

TA‘LIMDA KREATIV YONDASHUV

KUCHLI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI ASOSI

Al-Xorazmiy universiteti va uning huzurida Muhammad al-Xorazmiy maktabi filialining ochilishi xorazmliklar uchun muhim yangilik bo‘ldi. Universitetda matematika va informatika, aerokosmik texnologiyalar muhandisligi hamda sun‘iy intellekt fakultetlari tashkil etiladi. Ularda iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, sanoat, xavfsizlik, energetika va ekologiya kabi sohalar uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Bu esa universitetning sohada raqobatbardosh, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlovchi, yetakchi oliy ta‘lim muassasasiga aylanish imkoniyatini oshiradi.

Ayniqsa, o‘quv jarayonining “Yangi O‘zbekiston” universiteti tajribasi asosida BAA, Xitoy, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning nufuzli oliy ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etilishi universitetning kelgusidagi natijalari qanchalik yuqori bo‘lishidan dalolat.

“

TIBBIY TA‘LIM UCHUN YARATILAYOTGAN BU IMKONIYATLARNING BARCHASI SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADI. MAQSAD ESA BITTA: TA‘LIM MAZMUNINI SIFAT JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH HAMDA TIBBIYOT SOHASIDA ZAMONAVIY BILIM VA YUKSAK MA‘NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARGA EGA, MUSTAQIL FIKRLAYDIGAN YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDIR.

Prezidentimizning Xorazmga tashrifidan so‘ng viloyatda tibbiyot sohasi bo‘yicha oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash ishlarini rivojlantirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar yangi bosqichga chiqdi.

Joriy yil 7-may kuni tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ko‘tarilgan

masalalar ham nihoyatda dolzarb. Jumladan, tibbiyotda dual ta‘limni rivojlantirish masalasiga e‘tibor qaratilgani ayni muddao bo‘ldi. Chunki tibbiyotda dual ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish juda katta natija beradi. Yig‘ilishda, shuningdek, tibbiyot OTMlari huzuridagi birota klinika ular tasarrufida emasligi qayd etildi. Mutasaddilarga bir nechta OTMga moliyaviy mustaqillik berish va klinikalarni ularning tarkibiy tuzilmasiga o‘tkazish bo‘yicha topshiriq berildi.

Tibbiy ta‘lim uchun yaratilayotgan bu imkoniyatlarning barchasi sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqsad esa bitta: ta‘lim mazmunini sifat jihatidan takomillashtirish hamda tibbiyot sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashdir.

Zaynab ABIDOVA,
TTA Urganch filiali kafedra mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

DUNYO GULSEVARLARINI MEHMON QILAMIZ

NAMANGAN GO‘ZALLIK, NAFOSAT VA SAN’AT AYYOMIGA SHAY

1961-yilda ilk bor tashkil etilib, ikki kungina davom etgan gul bayrami keyingi yillarda xalqaro miqyosdagi yirik tadbirga aylandi. U 2022-yilda Xalqaro gullar festivali maqomini oldi va 15 kun davom etdi. Bugun esa ushbu shodiyona eʼrtaklardagi kabi qirq kecha-yu qirq kunduz nishonlanyapti.

Bu yilgi gullar sayli har yilgidan oʻzgacha oʻtkaziladi. Chunki namoyish etiladigan gullar turi har qachongidan koʻp. Namangan shahri obodonlashtirish boshqarmasi boʻlim boshligʻi Murodjon Mirgʻiyosovning aytishicha, birgina Namangan shahri hududiga golland navli mahalliyashtirilgan mavsumiy gullar, 10 mingdan ortiq atirgul, 1,5 ming tup manzarali butasimon koʻchat oʻtqazilgan. Jami 100 million tupdan ziyod 70 ga yaqin gul navi aynan festival uchun ekilgan. Nihollar yangi zamonaviy landshaft dizayni asosida mahalliy usulda, shuningdek, Turkiya, Niderlandiya, Italiya tajribasi asosida yetishtirilgan. Urugʻlarning 60 foizi xorijdan keltirilgan boʻlsa, 40 foizi mahalliy gulchilar tomonidan tayyorlangan. Zotan, gul ekish faqat hududni bezash emas, ekologiya musaffoligiga hissa qoʻshish, odamlarga estetik zavq ulashish, tabiatga mehr uygʻotish kabi muhim maqsadlarga xizmat qiladi.

Namanganning gulchilikdagi tajribasi butun mamlakatga namuna boʻlib kelmoqda. Shu bois, viloyatning sayyohlik salohiyati ham oshib boryapti. Festival doirasida ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkaziladi. Hunamandchilik mahsuloti koʻrgazmalarida xalq amaliy sanʼati namunalari, milliy taomlar namoyish qilinadi. Gullar bilan bezatilgan avtoparad, dron shou, lavanda sayli, modalar haftaligi, sport musobaqalari, jahon estrada yulduzlari ishtirokidagi shou-konsertlar tashkil etiladi.

Toʻyga toʻyona

Hargal gullar festivali oldidan Namanganning markaziy koʻchalari, xiyobonlar, bogʻlar, tashkilot va idoralar atrofi gullar-u manzarali daraxtlar bilan toʻladi. Joriy yil ham tumanlardan shaharga kirish joylarida ramziy gul darvozalari tiklandi. 64-Xalqaro gullar festivalining 100 mingdan ortiq xorijlik mehmoni oʻtgan yili ish boshlagan “Uchqoʻrgʻon — Kengsoy” boʻyxona postidan oʻtishi kutilyapti. Shuningdek, mehmonlar Uchqoʻrgʻon iqtisodiyoti drayveri boʻlgan qulupnaychilik faoliyati bilan tanishishi uchun qulupnay sayli oʻtkaziladi. Shu bois, tumanning asosiy koʻchalari ham gullar bilan bezatiladi. Hududda ekoturizm, agroturizm va gastronomik turizm yoʻnalishlari barobarida

qator yangi interaktiv loyihalar ham ishga tushirilmoqda.

Ayni paytda Uychi tumanida Uchqoʻrgʻon va Norin tumanlarini viloyat markazi bilan bogʻlovchi yangi yoʻl hamda Norin daryosi ustiga 481,5 metr uzunlikdagi koʻpriq qurish ishlari yakunlanyapti. Toʻraqoʻrgʻon tumanida ham katta yoʻl boʻylariga 45 ming tup atirgul, 10 ming tup rayhon, 10 ming tup chinnigul, 14 ming dona “Ziynat” nomli gul navi ekilib, parvarish qilinmoqda. Bularning barchasi koʻplab ish kuchi, qoʻl mehnatini talab qiladi. Saʼy-harakatlar samarasi oʻlaroq, Nanay turizm qishlogʻi, Axsikent hududi ham sayyohlik salohiyatini dunyo ahliga koʻrsatishga tayyor.

Asosiy tadbirlar oʻtkazilmasa-da, gullar festivali ochilish marosimining bosh manzillaridan biri boʻlgan Xotira xiyobonida eng chiroyli gul kompozitsiyalarini uchratish mumkin. Bu yilgi asosiy konsert dasturlari va badiiy tadbirlar “Yangi Oʻzbekiston” bogʻi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bogʻi, Afsonalar vodiysi tematik parkida oʻtkazilishi rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib, “Yangi Oʻzbekiston” bogʻi joylashgan Davlatobod tumani markaziy koʻchalarda ham ish qizgʻin. Bogʻ zamonaviy arxitektura yechimlari asosida tartibga keltirilmoqda. Maydonlarning rang-barang



gullar bilan bezatilgan bogʻ manzarasiga yanada joziba bagʻishlamoqda.

Darvoqe, toʻyga toʻyona sifatida Axsikentdagi Ochiq osmon va ekspozatlar muzeyi foydalanishga topshiriladi. Ochiq osmon muzeylari Axsikent arxeologiya parki tarkibidagi Yangi Axi majmuasiga bogʻlanishi va turizm shaharchasining yaxlit kompozitsiyasi boʻlishi koʻzda tutilgan.

Mehmonlarga qulaylik

Viloyat turizm boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari Otabek Rasulovning aytishicha,

festival mehmonlariga yuqori sifatli xizmat koʻrsatish maqsadida boshqarma huzurida maxsus shtab tuzildi. Shtab aʼzolari Davlatobod tumanida faoliyat yuritayotgan “Atour”, “S-Namangan”, “Istiqlol” hamda “Buyuk ipak yoʻli” mehmonxonalaridagi infratuzilma, xizmat koʻrsatish sifati, qulayliklar darajasini oʻrgandi. Aniqlangan holatlar yuzasidan aniq tashviylar ishlab chiqilib, kamchiliklarni tezkor bartaraf etish choralari belgilandi. Viloyat boʻyicha sayyohlarga 11 ming oʻrinli 634 ta joylashtirish vositasi xizmat koʻrsatadi. Xonadonlarda ham oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. Bu, avvalo, aholiga daromad, qolaversa, xalqaro tadbirga koʻproq mehmon jalb etish imkonini beradi. Bundan tashqari, qulay transport, shaharning raqamlashtirilgan xaritalari, bepul internet hududlari, milliy dizaynda bezatilgan ovqatlanish shoxobchalari, avtoturargoh va boshqa imkoniyatlar ham koʻrib chiqilyapti. Sayyohlarga xizmat koʻrsatishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, servis sifatini oshirish va festival ishtirokchilari uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish boʻyicha ishlar bajarilyapti. Umuman olganda, Namanganga kelgan mehmon koʻtarinki kayfiyatda ketishi uchun masʼullar bor imkoniyatni ishga solyapti.

Mehnatning rohati

Namanganda bugun minglab odam gulchilikdan daromad topyapti. Gulchilar assotsiatsiyasi, ilmiy markaz, alohida laboratoriya

tashkil etilgani bu borada ayni muddao boʻldi. Gul navlarini yaratish maydonlarida doʻstona, sof raqobat koʻzga tashlanadi. Kosonsoylik Muhammadolim Hamdamov ham omilkor gulchilardan. Tumanning Abdurahmon Jomiy mahallasida yashovchi bogʻbon xonadoni turfa gullar bilan bezatilgan. Gulchilik sulolasi vakillari ikkita alohida issiqxonada 25 ming

30 ga yaqin turini parvarishlamogʻda. Bir sotib joydan 17-20 million soʻmgacha daromad topayotgan qahramonimiz mahalladoshlarini mavsumiy ish bilan taʼminlab, gulchilik sirlarini oʻrgatib kelayotir.

Yirik tadbir uchun uzluksiz gul yetkazib berishda gulchilik markazlarining alohida oʻmi bor. Birgina Davlatobod tumanidagi gul yetishtirishga ixtisoslashgan majmuada 50 dan ziyod issiqxona mavjud. Ularda oʻnlab tadbirkor 30 xildan koʻproq gul parvarishlayapti. 100 dan ortiq odam gulchilik bilan band. Yetishtirilayotgan gullar mahalliy mijozlardan ortib, eksport ham qilinadi. Shuning uchun markaz xalqaro darajada eʼtirof etilgan. Tadbirkorlarga barcha qulaylik yaratilgan. Suv yetqovchi texnologiyalardan foydalanilayotgani mineral oʻgʻitlar sarfini kamaytiraypti. Ayniqsa, qishda ham, yozda ham birdek yashnab turadigan gullar tadbirkorlarning daromadi doimiyilgini taʼminlaydi.

— Gullar festivali uchun 100 ming tup gul yetishtirdik. Maqsadimiz — festivalda gullarimiz bilan mehmonlarni lol qoldirish. Qolaversa, mehnatimizga yarasha daromad topish niyatimiz bor. Yillik daromadimiz yomonmas, oʻrtacha 400-500 million soʻmga boradi, — deydi tadbirkor Omina Yusufjonova.

Innovatsion yondashuvlar

Oʻtgan yili festival kunlari viloyatga 210 mingga yaqin xorijlik, 5 millionga yaqin mahalliy sayyoh keldi. Bu yil ushbu raqamlar ortishi barobarida eksport hajmini koʻpaytirish reja qilingan. Umuman olganda, bu yil harakatlar ham, rejalar koʻlami ham katta. Viloyatdagi turizm sohasiga ixtisoslashgan taʼlim muassasalaridan 200 ga yaqin volontyor xorijiy til bilish darajasiga koʻra saralab olindi. Ular maxsus dastur asosida oʻqitilyapti. Shuningdek, viloyatdagi restoran, mehmonxonalarda xizmat koʻrsatuvchi xodimlar uchun ham Oshpazlar uyushmasi va Mehmonxonalar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda ikki kunlik oʻquv tashkil qilindi.

Bu safar festival tadbirlari oʻtadigan hududlarning landshaft dizayniga alohida eʼtibor berilyapti. Chunki didi nozik mehmonlar gullarning navi, chiroyigagina emas, gul kompozitsiyalaridagi innovatsion yondashuvlarga ham alohida eʼtibor qaratadi. Shu maʼnoda, har bir hudud kamalakrang anvoyi gullar va betakror shakllar bilan bezatilaypti. Jazirama kunlarda oshomda sayr etishni istaganlar uchun tungi yoritish tizimidan umumiy foydalaniladi. Zero, turfa yogʻduli kompozitsiyalar tunda yanada goʻzal koʻrinadi. Albatta, bu borada ham masʼullarning yuqori dizaynerlik mahorati aks etadi.

Bajarilgan ishlar, yangicha yondashuvlarni global axborot maydonida keng targʻib etish — bugungi kun talabi. Shuning uchun masʼullar yangi bosqichda ishlashi shart. Festival uchun alohida sayt yaratilayotgani bu boradagi urinishlarning bir koʻrinishidir. Saytda chiptalarni sotib olishdan tortib, barcha xizmat turlari haqidagi maʼlumotlar joylab boriladi.

Oʻtgan yili festivalning foto va videomateriallari ilk bor xalqaro ochiq media platformasi — “Wikimedia Commons” omboriga yuklandi. “Wikimedia Commons” — butun dunyo foydalanuvchilari uchun bepul ochiq boʻlgan tasvir, video va boshqa mediafayllar jamlanmasi. U Wikimediya jamgʻarmasining asosiy loyihalaridan. Xullas, platforma orqali Namanganning betakror manzaralari, festivaldagi goʻzal lahzalar va madaniy anʼanalar dunyo eʼtiboriga keng namoyish etiladi. Bu bilan gullar shahri — Namanganning turistik salohiyatiga xalqaro miqyosda baho beriladi. Qolaversa, ochiq axborot platformalari vositasida milliy qadriyatlarimizni dunyoga tanitishda ham yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

G‘OR HIKMATI VA EKOLOGIK TAFAKKUR

Mushohada

Kunning issigʻiga qaramay, egnidagi choponi va boshidagi qishki telpagini qoʻymaydigan Hamro bobo xitob etadi: “Qani, polvon, qorinmoyni oling”. Nimqorongʻi gʻor ichida moʻysafidga yuzlanaman. U qoʻlidingi qorinmoyni menga tutqazadi. Qorinmoyni — qoʻy yoki echkinning qornidan qilingan idishga solingan sariyogʻ. Bunday idishda saqlangan sariyogʻning mazasi boshqacha boʻladi. Omonxona ziyoratgohi yaqinidagi qishloq odamlari qorinmoyni qishgacha saqlash uchun shu yerdagi gʻordan foydalanadi. Gʻor — tabiiy sovitkich. Yozda uning ichi salqin, qishda issiq boʻladi. Shu sabab sariyogʻ gʻorda kuzakning salqin shabadasida esguncha saqlanadi. Gʻor unchalik katta emas. Ichi oʻtovni eslatadi. Gʻor pastdan tepaga qarab torayib ketgan. Uning tepa qismida bir odam zoʻrgʻa sigʻadigan yoriq joyi bor, yagona eshigi shu.

Emishki, kimdir gʻordan oʻziga tegishli boʻlmagan sariyogʻni olib ketmoqchi boʻlsa, u oʻgʻrini qisib qoladi. Mahalliy aholi orasida gʻor qisib qolgan odamlar haqida turfa gaplar yuradi. Nazarimda, bu inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarni qadimiy koʻrinishining bugungacha yashab kelayotgan

magik shaklidir. Asrimiz yoshlari bunday magik hodisalarga unchalik ishonmaydi. Zero, texnik taraqqiyot toʻxtovsiz axborot tizimi sabab tafakkurimizda koʻrinib turgan narsalargagina ishonish kerak degan qarashni shakllantirdi. Bu birdaniga paydo boʻlib qolgani yoʻq, albatta. Ilm-fan taraqqiy etishi barobarida texnikaga



yaqinlashib, tabiatdan uzoqlashib bordik. Matbuot nigohi doim dolzarb muammolarga qaratilgan boʻladi. Milliy matbuotimiz ham uzoq yillar ekologik masalalarni kun tartibiga qoʻyib keldi. Ochigʻi, bunday chiqishlar koʻpincha qumga suv sepganday besamar ketgani ham rost. Negaki endi odamlarni toshning qisib qolishi, suvga tufllagan odamning yuziga dogʻ tushishi kabi magik qarashlarga ishonitrib boʻlmasdi. “Xoʻsh, bunday vaqtda nima qilish kerak? Ekologik madaniyatni qanday qilib shakllantirsa boʻladi” kabi savollarga bitta

javob bor. Bu ham boʻlsa, odamlarni tabiatga yaqinlashtirish kerak!

Bugun tabiatga yaqinlashib borayotganimiz quvonarli. Masalan, bitta daraxtning noʻrin kesilishi keng jamoatchilik diqqatini oʻziga tortyapti. Yoki keyingi yillarda hayvonlarga shafqatsiz munosabadda boʻlish, noqonuniy ovl borasida ham xuddi shunday gaplarni aytak boʻladi. Toʻgʻri, hali chiqindini joyiga tashlash kabi jihatlarda kamchilgimiz bor. Ammo yuqoridagi aytilgan ijobiy natijaga qanday erishdik? Keling, bu savolga atroflicha javob izlab koʻrsak.

Birinchidan, soʻz erkinligi. Keyingi yillardagi fikrlarni bemalol aytga olishimiz masalani aniq, manzilli qilib koʻtarish imkonini berdi. Matbuotimizda falon viloyat, tuman masʼullarining beparvoligi sabab daraxtlar kesilyapti degan chiqishlar koʻpaydi. Muhimi, daraxt bilan bogʻliq muammo davlat rahbari tomonidan aytiladi va aniq yechim taklif qilindi. Yaʼni Orolning qurigan tubidan qancha chang koʻtarilayotgani, bu qanchalik zararli ekanligi ilmiy asosda aniq fakt bilan tan olindi. Soʻng masalaga yechim qilib Orolning qurigan tubiga shoʻrga chidamli oʻsimliklar ekish tashabbusi ilgari surildi. Ayni paytda “Yashil makon” umummilliy loyihasiga asos solindi. Bularning barchasini jamiyatimiz koʻrib, kuzatib turgan edi. Ana shu kuzatuvlar hosilasi oʻlaroq, demak, daraxtlarsiz hayotimiz toʻkis boʻlmas ekan degan yakdil qarash shakllandi.

Ishonchli manbadan, dalillar bilan kelgan va hayotda tasdiqʻini topayotgan axborotning taʼsiri kuchliroq boʻladi. Daraxtlar bilan bogʻliq birdamligimiz shu zayilda yuzaga keldi, nazarimda. Bu orqali odamlarimiz tabiatga yaqinlashdi.

Aytgancha, oʻshanda gʻor ichida turib oʻzimizni qorinmoyni oʻgʻirlagan inson sifatida tasavvur etib koʻrdim. Bildimki, agar oʻgʻrilik qilsam, oʻsha vaqtda ich-ichimda qandaydir qoʻrquv, xavotir uygʻonardi. Qoʻrqqan odam tanasida esa sezilarli oʻzgarishlar sodir boʻladi. Xususan, nafas olish qiyinlashadi, bosh ogʻriydi, yurak urishi tezlashadi va oyoq-qoʻl harakati

zaiflashadi. Inson nazoratni yoʻqotib, sarob tuygʻular asiriga aylanishi ham mumkin. Bu, albatta, qoʻrquvning qay darajada kuchli ekaniga bogʻliq. Buning barchasini zamonaviy tibbiyot tasdiqlaydi. Gʻorning tor ogʻzida oʻgʻrilarining ushlanib qolish siri shu!

Bugun odamlarni qoʻrquv bilan tabiatga yaqinlashtirib boʻlmaydi. Shu bois, ularda mehr uygʻotish kerak. Ayni sabab tufayli ham joriy yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yili” deb eʼlon qilindi. Bu insonlarni tabiat bilan hisoblashib, uni asliday asrashga boʻlgan katta chaqiriqdir.

Shu oʻrinda qiziq fakt. Qadim Yunonistonda va Rimda shakldor gulzorga gullarni shunday ekishgan ekanki, ularga qarab vaqtni bilish mumkin boʻlgan. Yaʼni gullarning joylashuvi va ochilish fursati vaqtni koʻrsatishga xizmat qilgan. Yaqinda poytaxtimizda gullar festivali boʻlib oʻtdi. Namangan viloyatida ham anʼanaga aylangan gullar festivali boʻlib oʻtish arafasida.

Unda xalqimiz betakror goʻzallikka guvoh boʻladi. Ana shu nafis chechaklar kabi koʻngli ham yorishadi. Bunday tuygʻu odamni zaminga, tabiatga yanada yaqinlashtiradi. Oʻzi uning kichik zarrasi ekanini anglaydi. Bu endi gʻor qisib qolishi kabi holatdan qoʻrquv emas, qalbning tub-tubida uygʻongan va osonlikcha yoʻqolmaydigan mehrdir.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri